

**EKOTURIZMNING SHAKLLANISHI VA DAVLAT TABIAT
YODGORLIKHLARI**

Bobomurodova N.J.¹

¹ Buxoro Davlat Universiteti

**MAQOLA
MA'LUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 13.10.2024

Revised: 14.10.2024

Accepted: 15.10.2024

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada muallif tomonidan hozirgi kunda tabiat yodgorliklariiga e'tibor berilishi, tabiat yodgorlikluridan ilmiy, estetik madaniyat, sayohat, ekoturizm, istirohat, tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish bo'yicha fikr mulohazalar yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR:

Tabiat yodgorliklari, davlat yodgorliklari, teshiktosh, dalvirzin tepa, ekosan, ekologiya, turizm, tabiiy ekoturizm.

KIRISH. Tabiat yodgorliklariga katta e'tibor berilib, ularning orasidan ekologik, ilmiy, estetik, madaniy jihatdan noyob, o'nini to'lidirib, kelib chiqishi tabiiy bo'lgan obyektlar tanlab olinib, Davlat tabiat yodgorliklari deb e'lon qilingan.

Davlatning asralishi lozim bo'lgan tabiat yodgorliklari doimo qo'riqlanib boriladi. Respublikada ushbu turdag'i yodgorliklar barcha viloyatlarda mavjud, ular doimo muhim yodgorlik sifatida asrab-avaylanadi.

Masalan, Samarqand shahrida eng qadimgi shahar Afrosiyob yodgorliklari yoki Urgut shahrida ming-yillik chinor saqlanib turibdi. Surxondaryo viloyati Boysun tumanida Sayram qishlog'idagi mingyillik chinorlardan bir vaqtlar maktab sifatida foydalanilgan. Xuddi shunday buloqlar, qal'alar va boshqalar tabiat yodgorligi sifatida muhofazaga olingan.

Tabiat yodgorligi sifatida asralayotgan bir qancha buloqlar mavjud, ular-yillar davomida davlat tomonidan muhofaza etib kelinadi. Shunday buloqlar Navoiy viloyati Nurota tumani markazida hamda Namangan viloyatida mavjud. Samarqand viloyati Urgut tumani Omon-Qo'ton hududida, shuningdek.

Navoiy viloyati Sarmishsoy qishlog‘ida suratlar chizilgan qadimgi toshlar mavjud bo‘lib, ular ham tabiat yodgorligi sifatida muhofaza qilinadi. Bunday toshiarni respublikaning boshqa hududlarida ham uchratish mumkin.

Tabiat yodgorlikluridan ilmiy, estetik madaniyat, sayohat, ekoturizm, istirohat, tarbiyaviy maqsadlarda foydalaniladi. O‘zbekistonda bunday tabiat yodgorliklari juda ko‘p: qadimiy odamlarning qoldiqlari topilgan Teshiktosh g’ori, Dalvarzin tepa, Sayrob, Boysun, Xo‘jakentdagi qadimiy chinorlar, Qo‘ytosh, Qirqqiz, Odamtoш, Xo‘jakentdagi qoyatoshlarga chizilgan rasmlar shular jumlasidandir. Mamlakatimizda 400 dan ziyod tabiat yodgorliklari ro‘yxatga olingan, ular davlat tomonidan qo‘riqlanadi. Ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik o‘zgarishlar jarayonida mamlakatda ekoturizmning rivojlanishi muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasining ko‘pgina mintaqalaridagi tajribalaming ko‘rsatishicha, ekoturizm-ishchi o‘rinlar sonini ko‘paytirishga, tabiiy ekotizimlarni tiklash va saqlashga ko‘maklashuvchi ijobiy ekobiznesdir, bu esa, o‘z navbatida, ekoturizmni Markaziy Osiyoda keng tarqatish zarurligini ko‘rsatadi. Ana shunday tashkilotlardan biri “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasi. Fridrix Eybert nomli Fond (GFR) va Xalqaro «Ekosan» fondi rahbariigida o‘tkazilgan «Ekoturizm va Buyuk Ipak Yo‘li» 1-Xalqaro konferensivasi tavsiyalariga ko‘ra tuzilgan «Ekosan-tur» markazidir. Markaz faoliyatining rivojlanishiga sayyoqlik sohasining mutaxassislari, O‘zbekistonning va boshqa Markaziy Osiyo davlatlarining tabiatni asrash tashkilotlari, maslahatchilar jalb qilingan. Mintaqalardagi ekoturizm obyektlarida faoliyat yurituvchi biznes tuzilmalar va mahalliy hokimiyat organlari, shuningdek, joylardagi o‘z-o‘zini boshqarish organlari ham jalb etilgan. Ekoturistik marshrutlarning marketing strategiyasi ishlab chiqilishi va rivojlanishida, markaz ekologik resurslarning yaxlitlikda saqlanishi majburiyligi va ushbu tabiiy resurslarni yemirilishiga yo‘l qo‘ylmasligini inobatga oladi.

Ushbu aspektda o‘z faoliyatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining tabiatni asrash qonunchiligi, shuningdek, atrof-muhit va mustahkam rivojlanish sohasida xalqaro kelishuvlarda qabul qilingan normalar markazning o‘z maqsadiga yetishishida ijobiy yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasida ekoturizmning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina muammolar bor. Jumladan, mahalliy aholini ekoturistik faoliyatga jalb qilish, malakali mutaxassislarning yetishmasligi, ko‘pgina mamlakatlardagi potensial sayyoohlarning Markaziy Osiyo mintaqasining ekoturistik noyob tabiiy-landshaft imkoniyatlaridan bexabarligidir. Ushbu va boshqa masalalarni yechish maqsadida ekoturizmning mustahkamligi va ustunligi to‘g‘risida mahalliy aholi

(mahalla) bilan uchrashuvlar o'tkazilayapti. Tabiiy ekotizimda biogeotsenoz, biologik xilma-xillikni saqlash va tiklash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlanadirish, suv ta'niinoti. Ekoturistik faoliyatning natijalarini hisobga olib, ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda turizmning mustahkam rivojlanishida ekoturizm muhim faktor bo'lib hisoblanadi.

Ekoturizm tabiatni asrash zarurligi, o'rmonlarni kesishni qisqartirish, buzilgan tabiiy ekotizimlarni tiklashda qatnashish borasida mahalliy aholi ongida burilish yasaydi. Ekoturizmning o'tkazayotgan tadbirlari aholining ekologik ma'lumotlarini sezilarli darajada kengaytirishga yordam berayapti va bu mintaqaga aholisining ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga olib kelmoqda. Insoniyat o'zining taraqqiyoti natijasida yashashi uchun sun'iy yashash muhitini yaratdi, ammo asl tabiatda yashash uning orzusidir, shu tufayli ham tabiatga talpinadi.

Insonlarning tabiatga bo'lgan munosabati faqatgina tabiatni saqlash emas, balki butun sayyorani saqlash hisoblanadi. Insonlar tabiat bilan uyg'unlashib ketganda, tabiatni tushunganda **ekoturizmni** tashkil qilish lozim. Chunki ekoturizm insonlarga tabiatga boshqa ko'z bilan qarashni, uni saqlashni, lushunishni o'rgatadi. Xalqaro turizmning mamlakatlarga qarab 20-60 foizini ekoturizm tashkil qiladi, bunday savyohlarning ayrimlari yovvoyi florani, yana birlari faunani, okean va dengizlarni o'rganuvchilar bo'ladi.

Ekoturizm o'zida xavfli vaziyatlarni ham, tinch dam olish muvozanatlarini ham yuzaga keltiradi. Sayohat davomida tabiatga insonlar mutlaqo zarar yetkazmasliklari zarur.

Ekoturizmning bir qator o'z qoidalari mavjud.

- Ekologik turizm odamlarning tabiatga bo'lgan mehr-muhabbatini namoyon qiladi va ular o'z xohishlarini ekosayohat orqali qondirishadi.
- Sayohat paytida sayyoohlars asosan tirik tabiat hamda o'zları o'rganayotgan hududlarning mahalliy an'analari va odatlari bilan tanishadilar.
- Ekoturizm hech qachon tabiatga va bioxilma-xillikka zarar yetkazmaydi va u tabiatni muhofaza qilishning usullaridan biri hisoblanadi.

Ekoturizm natijasida tabiatni muhofaza qilish uchun sayyoohlardan mablag'i yig'ib, tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalanish mumkin, bunda ushbu tabiatni hamma kelib ko'rsin, deb avaylanadi, saqlanadi.

O'zbekistonda ham keyingi yillarda ekoturizmni shakllantirish borasida bir qator ishlar olib borilmoqda. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqanddagi servis institutining Turizm fakulteti bu sohada mutaxassislar tayyorlamoqda. Respublikamizda mavjud **tabiat yodgorliklarining** barchasi hisobga olingan va ular noyob yodgorlik sifatida qo'riqlanib

kelinadi. O‘zbekiston tabiatida ham ekoturizmni tashkil qilish va shakllantirish borasida samarali ishlarni olib borish hamda xalqaro turizmni rivojlantirish hozirgi davming muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. К.Ф Абдуллаев, Н.Ж Бобомуродова, К.К Кобилжонов. [Высокая духовность основа экологической культуры](#) Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации, 5-8.
2. К.Ф Абдуллаев, Н.Ж Бобомуродова. [К проблеме взаимодействия общества и природы](#). Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI века, 255-256.
3. К.Ф Абдуллаев, Н.Ж Бобомуродова. [Физическая культура и спорт-эффективное средство предотвращения вредных привычек у подростков](#). Человек и природа, 195.
4. Н.Ж Бобомуродова. [Экологическая культура как общечеловеческая ценность](#). Международные образовательные, научные и социально -культурные технологии.
5. Н.Ж Бобомуродова. [Оптимальный режим питания-важный фактор правильного физического развития детей](#) Вестник науки и образования, 61-63.
6. Н.Ж Бобомуродова. [Задачи школы по охране природы школьников](#). Вопросы науки и образования, 18-20.
7. К.Ф Абдуллаев, Н.Ж Бобомуродова. [Взгляды на астрологию великого мыслителя абу рапхон беруни](#) Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные .
8. N Babamurodova, N Rakhimovna. [Conservation of water and soil resources](#). Евразийский журнал медицинских и естественных наук 2 (12), 72-76.
9. Н.Ж Бобомуродова. [Педагогические науки задачи школы по охране природы](#). Вопросы науки и образования 18 (2).
10. Н.Ж Бобомуродова. [Любовь к человеку-идеяная основа гуманизма алишера навои](#). Символ науки, 40-43.
11. N Babamurodova. [Zamonaviy ta'lim mazmunida yoshlarda ekologik tafakkurni shakllantirish](#). Ta`lim va innovatsion tadqiqotlar 44 (44).
12. N Babamurodova. [Аждодлар меросида баркамол инсон саломатлиги ғояси](#) Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32 (32).
13. N Babamurodova. [Aholini ommaviy sog'lomlashtirishda jismoniy mashqlarning o'rni](#). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32 (32)
14. N Babamurodova. [Ekologiya darslarida interfaol mashqlar va topshiriglardan samarali foydalanish shart-sharoitlari](#). Ta`lim va innovasion tadqiqotlar 43 (43).
15. N Babamurodova. [Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv fanlaridagi integratsiya jarayonlar](#). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32 (32).

-
16. К.Ф АБДУЛЛАЕВ, Н.Ж БОБОМУРОДОВА. [Вклад великого мыслителя арберуни в естественные науки](#). Антропологическое знание как системообразующий фактор профессионального.
17. A.N Asadullayev. [Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar](#). Science and Education 5 (4), 137-145.
18. A Asadullayev. [Agroklasterlarda organik mahsulot ishlab chiqarish va biomassadan samarali foydalanish](#). центр научных публикаций (buxdu. uz) 45 (45).
19. A.N Asadullayev. [Lat yeganda va shikastlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish](#). Science and Education 5 (2), 45-51.
20. N.R Ochilova, G.S Muratova, D.R Karshieva. [The Importance of Water Quality and Quantity in Strengthening the Health and Living Conditions of the Population](#). Central Asian Journal of Medical and Natural Science 2 (5), 399-402.
21. А.А.Мажидов, Д.Р Каршиева, Н.Р. Очилова. [Физико-механические свойства напечатанных хлопчатобумажных тканей с загусткой на основе модифицированного крахмала, с карбокиметилцеллюзой и серацином](#) Universum: технические науки, 33-37.
22. S.M. Mardonova, G.S. Muratova. [Principles of increasing the spiritual and spiritual integrity of the population in possible emergency situations](#). Web of Conferences 389 (9), 1-11.
23. С. Мардонова. [Хаёт хавфсизлиги коидаларини укитишнинг самарадорлиги](#). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 32 (32)ю
24. М.Г Сайдовна. [Захарланишларда шошилинч тиббий ёрдам](#). Zamonaviy ta'linda fan va innovatsion tadqiqotlat 4 (2), 27-33, 2024.
25. F Nazarova. М.Г Сайдовна. [Оқ дўнгашона балиғи личинкаларининг озиқланиш биологияси](#). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 44 (44), 2023.
26. G Muratova. [Автотранспорт ходисалари булганда биринчи тиббий ёрдам курсатиш хусусиятлари](#). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 43 (43), 2023.
27. Ш.Р Инфаровна. [Хайвон захари билан захарланганда шошилинч тиббий ёрдам](#). Zamonaviy ta'linda fan va innovatsion tadqiqotlar jurnalı 2 (4).
28. R Sharafutdinova. [Человек меняющий природу](#). Центр научных публикаций (buxdu. uz) 45 (45)